SOLIQ MA'MURIYATCHILIGI MEKANIZMI VA UNING RAQAMLI IQTISODIYOTDAGI RIVOJLANISHI....	1388
Ibadullayev Sanjar Sodiqmuratovich	
BANKLARDA MUAMMOLI KREDITLAR BILAN ISHLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	1392
Mitilayev Ibrohimjon Tursunpulatovich	
BUG'DOY HOSILDORLIGI VA YALPI HOSILINI TAHLIL QILISH HAMDA HISOBLASH USULLARI	1396
Uzoqova Ziyodaxon Abdug'afforovna	
RAQAMLI MOLIVAVIY XIZMATLAR SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING ZARURIYATI VA AHAMIYATI	1402
Muyassarzoda Fayziyeva	
MAKROIQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH ORQALI AGRORESURLAR BOZORI IQTISODIY XAVFSIZLIGINI OSHIRISH MASALALARI	1408
Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich, Tashmuxeimedova Yayra Atxamovna	
JAHONDA KREATIV SOHALARNI RIVOJLANISH EVOLYUTSIYASI VA HOZIRGI DAVRDA IQTISODIYOTDA TUTGAN O'RNI.....	1414
Ismailov Azizbek Ruzimaxammatovich	
OSIYO DAVLATLARI RAQAMLI JURNALISTIKADA AYOLLAR ISHTIROKI (JANUBIY KOREYA, HINDISTON, YAPONIYA) DAGI ZIDDIYATLAR.....	1425
Zakirova Oisha	
ТРАНСФОРМАЦИЯ ОБЩЕСТВЕННОГО СОЗНАНИЯ В ЭПОХУ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА: СОЦИОЛОГИЯ РОЛИ ЖЕНЩИН И ГЕНДЕРНОЙ ИДЕНТИФИКАЦИИ В ТЕХНОЛОГИЧЕСКОМ ОБЩЕСТВЕ	1431
Сиддикова Гулноза Абдумаликовна	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR HISOBINI YURITISHDA TA'MINOT JARAYONINING AHAMIYATI.....	1437
Nuraliyeva B.	
TEMIR YO'L TRANSPORTI INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI	1443
Raximov Xasan Shukurjonovich	



XALQARO TASHQI ISHLARDA KATTA MA'LUMOTLAR TAHLILI VA MA'LUMOT DIPLOMATIYASI: AXBOROTNI STRATEGIK RAZVEDKAGA AYLANTIRISH	1450
Kurolov Maksud Obitovich	
TA'LIM BOSHQARUVIDA "YASHIL KO'NIKMALAR"NI INTEGRATSIYALASH VA BARQAROR RIVOJLANISH: TALABALAR VA TIZIMLARNI IQLIM HARAKATIGA VA YASHIL IQTISODGA O'TISHGA TAYYORLASH.....	1460
Esanova Shohida	
НАЛОГОВАЯ КУЛЬТУРА: СУЩНОСТЬ, ПРОБЛЕМЫ ФОРМИРОВАНИЯ И МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ	1468
Хамзина Динара Рашатовна	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SANOAT KORXONALARINING INNOVATION FAOLIYATINI TANLANMA KUZATUV ASOSIDA O'RGANISH METODOLOGIYASI.....	1473
Jalolov Ilhomjon Isomiddinovich	
QURILISH MATERIALLARI KORXONALARIDA "YASHIL MENEJMENT" TIZIMINI JORIY ETISH	1482
Masharipova Sevara Bekturdi qizi	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISHNING INNOVATION USULLARI	1487
Marimova Indira Rasul qizi	
DAVLAT KORXONALARINI ISLOH QILISHNING ZAMONAVIY BOSQICHLARI VA O'ZBEKISTONNING XUSUSIYLASHTIRISH MODELI.....	1492
Murodov Orif Jumayevich	
TIJORAT BANKLARNING RESURS BAZASINI MUSTAHKAMLASHNING XORIJ TAJRIBASI	1497
Sultanmuratova Dilrabo Shaylavbekovna	
ЦИФРОВАЯ МОДЕРНИЗАЦИЯ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЁТА В УЗБЕКИСТАНЕ: ПРОБЛЕМЫ, ПЕРСПЕКТИВЫ И ПУТИ ГАРМОНИЗАЦИИ С МЕЖДУНАРОДНЫМИ СТАНДАРТАМИ	1502
Киличева Ф.Б.	
RAQAMLI IQTISODIYOTNING MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARGA TA'SIRINI BAHOLASH	1507
Kurbanov Feruz Pirnazarovich, Qudratov Islom Ismat o'g'li	
ПЕРСПЕКТИВЫ И ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ СФЕРЫ УСЛУГ В РЕСПУБЛИКЕ КАРАКАЛПАКСТАН	1511
Маденова Эльмира Нзаматдиновна, Махмудова Маяна Азатовна	
ПРАВОВАЯ ПРИРОДА СОГЛАШЕНИЯ О РАЗДЕЛЕ ПРОДУКЦИИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	1516
Мансуров Обид Зайнидинович	
REKLAMA XIZMATLARI BOZORIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHGA OID NAZARIY QARASHLAR.....	1522
Xamrakulov Azamat Baxritdinovich	
TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARDA VOSITACHILARNI MOTIVATSIYALASH MASALALARI.....	1528
Jalilov Jamshid G'anijonovich	
SOLIQ MA'MURIYATCHILIGI SUBEKTLLARI O'RTASIDAGI O'ZARO HAMKORLIK MEKANIZMLARINING RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIGA MOS TRANSFORMATSIYASI	1534
To'rayev Shavkat Shuxratovich, Ibadullayev Sanjar Sodiqmuratovich	
YASHIL IQTISODIYOT VA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIK.....	1540
Yaxshibayev Ulug'bek Shavkat o'g'li	
THE IMPORTANCE OF SPOKEN ENGLISH IN GLOBAL COMMUNICATION	1545
Dr. Mamatkulova Shohista Jalolovna	
MAHALLIY DAVLAT ORGANLARINI RAQAMLASHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI	1549
Nurmurodov Zafarjon Nurmurod o'g'li	
IQTISODIYOTNI DEKARBONIZATSIYALASH: MOHIYATI VA IMKONIYATLARI.....	1554
Xashimova Salima Nigmatullayevna	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA QISHLOQ XO'JALIGI ISHLAB CHIQARISHINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH	1558
B.B.Mambetnazarov, Tureev Atabek Abatovich	



BUXORO VOHASINING MUSULMON ZIYORAT TURIZMI IMKONIYATLARINI BAHOLASH: ACES 3.0 METODIKASI ASOSIDAGI TAHLIL	1563
Kurbanova Mohinur Xabib qizi	
KICHIK KORXONALARDA ISHLAB CHIQARISH OMILLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY YONDASHUVLARI.....	1568
Mustafakulova Nodira Primovna	
BEVOSITA VA BILVOSITA SOLIQQA TORTISHNI OPTIMAL TASHKIL ETISH METODOLOGIYASI	1572
Qodirov Baxodir Qudratovich	
SUT VA SUT MAHSULOTLARI KORXONALARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING USLUBIY JIHATLARI	1577
Normuradov Nurbek Sunatilloevich	
ЦИФРОВИЗАЦИЯ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЁТА И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА ВНУТРЕННИЙ АУДИТ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ	1581
Шарахметов Шерзад Шаазимович	
O'ZBEKISTON "YASHIL" IQTISODIYOT SARI: QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING RIVOJLANISH METODLARI.....	1588
Qodirov Baxodir Tursunovich	
IQTISODIY XAVFSIZLIKNING MOHIYATI VA MAZMUNI.....	1592
Feruza Mirzoyeva Salimovna	
YASHIL O'SISH, YASHIL IQTISODIYOT VA BARQAROR RIVOJLANISH: ATAMAVIY VA O'ZARO BOG'LIQLIK MASALASI.....	1597
Djalilov Sardor Sadilloevich	
YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISHDA SOLIQ MA'MURCHILIGINI RIVOJLANTIRISH ORQALI DAROMAD VA XARAJATLARNI DEKLARASIYALASHNING TUTGAN O'RNI	1601
Mamatkulov Salimjon Raxmonkulovich	
DIGITAL ECONOMY AND GREEN TECHNOLOGIES: INNOVATIONS ON THE ROAD TO SUSTAINABLE DEVELOPMENT	1606
Amiriddinova Madinabonu Zayniddin kizi	
FARG'ONA VODIYSIDA FAOLIYAT YURITAYOTGAN TO'QIMACHILIK KORXONALARINING EKSPORT SALOHİYATI TAHLILI VA ULARNI BAHOLASH	1609
Qodirov Humoyun Tolibjon o'g'li	
SIFAT VA RAQOBATBARDOSHLIK.....	1616
Xasanova Robiyaxon Kamoliddin qizi, Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich	
O'ZBEKISTONDA IPOTEKA KREDITLASH JARAYONINI TASHKIL ETISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	1620
Mardiyev Akrom Djumaboyevich	
BIRLAMCHI TIBBIY-SANITARIYA MUASSASALARINI NATIJADORLIK INDIKATORLARI ASOSIDA MOLIYALASHTIRISH ISTIQBOLLARI	1627
S.J. Sultanov	
TIJORAT BANKLARIDA KOMPLAENS NAZORAT VA MOLIYAVIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	1633
Ulashbayev Shohruh Abdivaxobovich	
BIOMASSA ASOSIDA OZUQA ISHLAB CHIQARISH ORQALI IQTISODIY SAMARADORLIKGA ERISHISHNING AYRIM JIHATLARI.....	1639
Xazratkulov Niyoz Namazbayevich	
STRATEGIC MANAGEMENT AND DEVELOPMENT OF CORPORATE TALENTS	1644
Shoyunusova Arofat, Sanjar Mirzaliev	
AGROTIZIMDA ANOR YETISHTIRISHNING O'RNI VA IQTISODIY AHAMIYATI	1648
Ortiqov Sulton Davronqul o'g'li	
TO'QIMACHILIK SANOATINI HOZIRGI KUNDAGI TAHLILI	1652
Mahmudova Chinora Anvar qizi	
XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISHDA IMTIYOZLAR VA KAFOLATLAR TIZIMINING AHAMIYATI	1657
Nizamov Xusniddin Fazliddinovich	
SANOAT TARKIBIY O'ZGARISHLARINING IQTISODIY RIVOJLANISHGA TA'SIRINING EKONOMETRIK TAHLILI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA).....	1663
Jumaniyazov Nodirbek Odilbek o'g'li	



MINTAQAVIY RIVOJLANISH SHAROITIDA SHAHARLAR AGLOMERATSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY JIHATLARI.....	1670
Abdulkakimov Zuxrali Tursunaliyevich	
TIBBIY XIZMAT KO'RSATUVCHI KORXONALAR SAMARADORLIGINI IFODALOVCHI KO'RSATKICHLAR.....	1674
O'roqov Firdavs Ortiqniyoz o'g'li	
СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ И МЕТОДЫ ФИНАНСОВОГО АНАЛИЗА В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ АКЦИОНЕРНЫХ КОМПАНИЙ.....	1678
Бекбаева Феруза Бахтиеровна	
AUDITNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA BUDJET BILAN HISOB-KITOBBLAR AUDITINI TASHKIL QILISHNING AMALIY JIHATLARI.....	1684
Rashidov Zuhridin Sanjar o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SOLIQ TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	1690
Radjabov Umurzoq Ablakulovich	
АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРАКТИКИ УПРАВЛЕНИЯ ВАЛЮТНЫМИ РИСКАМИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ	1695
Тугалов Бобур Қаршибой угли	
HAVO TRANSPORTI ORQALI YUK TASHUVCHI TADBIRKORLIK SHAKLLARI VA UNDAGI MUOMMOLAR	1703
Anvarova Dilfuza Abdusattor qizi	
HUDUDIY IQTISODIYOTDA INNOVATSION SIYOSAT MEXANIZMINI SHAKLLANTIRISHNING TIZIMLI MODELI	1709
G'aniyev Sanjar Poziljon o'g'li	
СОВРЕМЕННАЯ МОДЕЛЬ УЧЕТА ЗАТРАТ И АУДИТА В УЗБЕКИСТАНЕ: НАЦИОНАЛЬНАЯ БАЗА И МСА.....	1716
Юлчиев Ойбек Улугбек ўгли	
TIJORAT BANKLARIDA YANGI BANK XIZMATLARINI JORIY ETISHDA XORIJIY Tajribalarni INTEGRATSIYALASH YO'LLARI.....	1723
Umarov Abdulquddus Abdilxatovich	
YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH DAVRIDA KICHIK BIZNES IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISH.....	1731
Isroilov Dilshodbek Rustamovich, Isroilova Odina Rustambek qizi	
O'RMON XO'JALIGINI MOLIYALASHTIRISHDA MOLIYAVIY RESURLAR VA MANBALAR.....	1737
Mamatqulova Muxlisa Mamirjanovna	
ZAMONAVIY JAHON IQTISODIYOTIDA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI, ISROFI VA YO'QOTISHLARINI KAMAYTIRISH MASALALARI.....	1743
Nazarova Gulbahor Raxmonkulovna	
KORXONA FOYDASI VA UNING RAQOBATBARDOSH NARX SIYOSATINI MAKSIMALLASHTIRISH YO'LLARI.....	1748
Axmadjonov Murodjon Axadjon o'g'li	
DEVELOPMENT PRIORITIES FOR THE FRUIT AND VEGETABLE SECTOR IN THE CONTEXT OF UZBEKISTAN'S FOOD SECURITY POLICY	1754
Nazarova Munavvar Soatmurod qizi	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA HR MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI	1761
Xamroyeva Kumush Alisherovna	
QURILISH SANOATIDA BARQAROR RIVOJLANISH VA YASHIL IQTISODIYOT TAMOYILLARI.....	1768
G'ulomova Shaxlo Baxtiyor qizi	
TURISTIK DESTINATSIYA TUSHUNCHASINING NAZARIY-KONSEPTUAL ASOSLARI	1772
Bekberganov Izzat Hurmat o'g'li	
TRANSPORT XIZMATLARI BOZORI TUSHUNCHASI VA UNING IQTISODIYOTDAGI O'RNI	1775
Jo'rayeva Shahzoda Farhod qizi	
O'ZBEKISTONDA QURILISH MAXSULOTLARI ISHLAB CHIQUARADIGAN KORXONALARNING RAQOBATBARDOSHLIGI TAHLILI	1781
Yusufova Laylo G'ayrat qizi	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BANK MAHSULOTLARINI TAKOMILLASHTIRISH TENDENSIYALARI.....	1788
Xujamuratov Abbos Mardonovich	
PR-BO'LIMI FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING TARKIBIY-FUNKTSIONAL YONDASHUVLARI.....	1792
Ergasheva Fotimaxon Ibragimovna	



TURIZM XIZMATLARINI RIVOJLANISHINING O'ZIGA XOS TENDENSIYALARI	1797
Xujakulova Odina Valijonovna	
DAVLATNING IQTISODIY MUVOZANAT VA BARQAROR RIVOJLANISHDAGI ROLI.....	1805
Uzoqov Bekzod Bozor o'g'li	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA MAHALLIY MODA BRENDINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI.....	1810
Tuxtayeva Oydinoy Normamatovna	
DEVELOPMENT OF TOURISM INFRASTRUCTURE IN UZBEKISTAN	1817
Sadinova Maqsuda Azamjonovna	
O'ZBEKISTONDA YASHIRIN IQTISODIYOTNING ISHSIZLIK DARAJASIGA TA'SIRINING EKONOMETRIK TAHLILI	1824
Raxmonov Bekzod Sharibjon o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI BAHOLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	1832
Djurayev Laziz Tursunboyevich	
TA'LIM TASHKILOTLARINI RIVOJLANTIRISHDA MARKETINGNING ROLI	1836
Raximov Faxriddin Shavkatovich, Abdullayev Ilyos Sultanovich	
TURIZM INDUSTRIYASI VA TURIZM INFRATUZILMASINING MOHIYATI HAMDA TARKIBIY QISMLARI	1844
Mo'minova Mavjuda Sharifovna	
МОДЕРНИЗАЦИЯ НАЛОГОВОЙ ПОЛИТИКИ КАК ИНСТРУМЕНТ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ НАЛОГОВОЙ СИСТЕМЫ УЗБЕКИСТАНА.....	1849
Бозорова Озода Рахимовна	
EKSPORT FAOLIYATINI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH TIZIMINING INSTITUTSIONAL TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA SAMARADORLIKNI OSHIRISH YO'LLARI	1854
To'rayeva Yulduz Shamsiddin qizi	
ZAMONAVIY ISH JOYLARINI SHAKLLANTIRISHDA AYOLLARNING ROLI	1859
Tulyaganova Aziza	
MAMLAKAT IQTISODIYOTIGA INVESTISIYALARNI YO'NALTIRISHDA QULAY INVESTISION MUHITDAN OQILONA FOYDALANISH ISTIQBOLLARI	1864
Xikmatov Xayrullaxon Maxmurxonovich, Bo'riyev Lochinbek Ortiqbopoyevich	
O'ZBEKISTONDAGI KLASSTERLARNING FAOLIYATI TO'G'RSIDA	1870
Azimova Feruza Payziyevna, Yuldashev Samad Normo'minovich	
ФИНАНСОВОЕ ОЗДОРОВЛЕНИЕ КАК СТРАТЕГИЧЕСКИЙ ИНСТРУМЕНТ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ КОМПАНИИ	1875
Алиева Сусанна	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLAR JORIY AKTIVLAR TAHLILINING NAZARIY KONSEPSIYASI VA METODOLOGIK XUSUSIYATLARI.....	1881
Nurmanov U.A.	
ALOQA XIZMATLARINI KO'RSATUVCHI SUBYEKTLARDA INNOVATSION XIZMATLARNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI	1887
Shirinova G.X.	
XIZMATLAR EKSPORTINI RIVOJLANTIRISH VA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	1893
Karshiyeva Charos Mamasoliyevna	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA RIVOJLANISHI: 2017-2025-YILLAR DINAMIKASI TAHLILI	1900
Sarsenbayev Baxitjan Abdulgazievich, Allamberganova Nargiza Kuanishbayevna, Turg'anbayeva Ramiza Tolibayevna	
ГЛОБАЛЬНЫЕ И ЛОКАЛЬНЫЕ ТРЕНДЫ ИННОВАЦИЙ В СФЕРЕ БАНКОВСКИХ УСЛУГ	1907
Махамаджанов Мухаммадали Музаффарович	
YO'LOVCHI TRANSPORT XIZMATLARI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMLARI	1912
Mirzayev Qulmamat Jonuzoqovich, Aktamov Abduvali Abdug'ani o'g'li	
BUXORO VILOYATIDA HUNARMANDCHILIK SOHASINING RIVOJLANISHI: EKONOMETRIK TAHLIL VA PROGNOZ (2014-2030-YILLAR)	1917
A.F. Ergasheva	
RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARINING KORXONA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDAGI O'RNI.....	1930
Amonov Mirzohid Tuymuratovich	



OLIY TA'LIM TIZIMIDA XIZMAT KO'RSATUVCHI MUASSASALAR RAQOBATBORDOSHLIGINI OSHIRISH BO'YICHA NAZARIY YONDASHUVLAR.....	1937
Begmatova Ziyoda Zaxidjon qizi	
RISKNI SUG'URTALASH ORQALI KORXONA FAOLIYATINI OPTIMALLASHTIRISH.....	1942
Maxmudov Shoxruxbek Asror o'g'li	
GLOBAL STANDARDS AND PRACTICES IN MEDICAL TOURISM: AN IN-DEPTH ANALYSIS OF CURRENT TRENDS, CHALLENGES, AND REGULATORY FRAMEWORKS.....	1947
Adilova Diyora Ulugbekovna	
МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ УПРАВЛЕНИЯ АКВАКУЛЬТУРНЫМ СЕКТОРОМ НА ОСНОВЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ ИНФОРМАЦИОННЫХ СИСТЕМ И ТЕХНОЛОГИЙ ОПТИМИЗАЦИОННОГО МОДЕЛИРОВАНИЯ.....	1952
Мырзатаев Саламат Муратбаевич, Аскарлов Бахтияр Мамытович	
MINTAQAVIY SUG'URTA BOZORINING MINTAQANING IJTIMOY-IQTISODIY HOLATIGA TA'SIRI	1958
Xoltoyev Mirusmon Mirxamit o'g'li	
BANK XIZMATLARINING RAQAMLASHTIRILISHI DARAJASI VA FINTECH PLATFORMALARINING ROLI	1963
Abdullayeva Dilfuza Atajan qizi	
DEBITOR VA KREDITOR QARZDORLIKNING MOHIYATI VA ULARNING O'ZGARISH TENDENSIYALARI.....	1969
Jo'rayev Farruxbek Muxiddin o'g'li	
FARMATSEVTIKA FAOLIYATINING ASOSIY IQTISODIY KO'RSATKICHLARI TAHLILI	1972
Yaqubov Timurbek G'anibekovich	
THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF ECOLOGICAL ENTERPRISES' ACTIVITY	1976
D. Meiliyeva	
BUDJET MABLAG'LARINING BIR QISMINI JAMOATCHILIK FIKRI ASOSIDA MOLIYALASHTIRISH ISLOHOTLARI	1979
Xamidov Xabibullo Xikmatulla o'g'li	
MINTAQ IQTISODIYOTDA SANOAT SALOHİYATINI RIVOJLANTIRISHDA SANOAT TUZILMALARINING IXTISOSLASHUV TENDENSIYALARI.....	1987
Nabiyev G'ulom Abdisalomovich	
MINTAQ IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA LOGISTIK XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI RESURLARIDAN FOYDALANISH TAHLILI.....	1997
Xalimov Javlonbek Shaxriyorovich	
SOLIQ TIZIMIDA TOVAR TRANSPORT YUK XATLARI RAQAMLASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	2004
Muxammadov Nodir Karimovich	
НЕПАРАМЕТРИЧЕСКОЕ ОЦЕНИВАНИЕ ИНТЕРВАЛАМИ ФИКСИРОВАННОЙ ШИРИНЫ: АСИМПТОТИЧЕСКАЯ СОСТОЯТЕЛЬНОСТЬ И ЭФФЕКТИВНОСТЬ	2010
Турсунов Гафур Таирович	
INNOVATION RIVOJLANTIRISH SHAROITIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI BARQAROR RIVOJLANTIRISH XUSUSIYATLARI VA TAMOYILLARI	2017
Abdusaidov Akmal Abduvaliyevich	
ZARAFSHON MINTAQASIDA QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRISH VA UNING HUDUDIY MUTANOSIBLIGIGA TA'SIR KO'RSATUVCHI OMILLAR TAHLILI	2022
Murtazayev Isabek Bazarbayevich	
YOSHLAR BANDLIGINI TA'MINLASHDA STARTAP VA TADBIRKORLIK EKOTIZIMINING ROLI	2033
Mirzakarimova Muyassarxon Muminovna	
PNEVMOTRANSPORT TIZIMIDA PAXTA XOMASHYOSINING SHIKASTLANISHINI ANIQLOVCHI QURILMANING MATEMATIK MODEL ASOSIDA TAJRIBALAR O'TKAZISH.....	2037
Boltabayev Bekzod Egamberdiyevich	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARI INVESTITSIYA FAOLIYATINI FOND BOZORI ORQALI MOLIYALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	2042
Qurbonov Nuriddin Ro'ziqulovich	
ПОНЯТИЕ ТУРИСТИЧЕСКИХ УСЛУГ И ИХ СОСТОЯНИЕ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	2048
Халимов Шахбоз Халимович	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	2053
Ergashev Jamshid Jamoliddinovich	



KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	2057
Axmedov Oybek Turgunpulatovich	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDAGI KAPITAL JAMG'ARILISHINI BAHOLASH.....	2062
Djalilov Dostonbek Abduazizovich	
QISHLOQ XO'JALIGIDA ISHLAB CHIQARISH RESURSLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	2067
Nurxonov Nurkomil Qahramon o'g'li	
OLIY TA'LIM TIZIMINI BAHOLASHDA ISHONCH DARAJASINI ANIQLASH USULLARI	2072
Hakimova Gulnoza Abdulloyevna, Hakimov Hakimjon Abdullo o'g'li	
BOZOR RAQOBATLARI SHAROITIDA QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI REKLAMASINI SAMARALI TASHKIL ETISH USULLARI	2077
Djurayev Bekzod	



BOZOR RAQOBATLARI SHAROITIDA QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI REKLAMASINI SAMARALI TASHKIL ETISH USULLARI

Djurayev Bekzod

Toshkent iqtisodiyot va texnologiyalar universiteti

E-mail: djurayev_b89@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada bozor raqobatlari kuchayib borayotgan sharoitda qishloq xo'jaligi mahsulotlari reklamasini samarali tashkil etishning nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etilgan. Tadqiqotda qishloq xo'jaligi mahsulotlarining o'ziga xos xususiyatlari, mavsumiylik omili, ichki va tashqi bozorlar talabi hamda reklama vositalaridan foydalanish samaradorligi tahlil qilingan. Shuningdek, zamonaviy marketing kommunikatsiyalari, brendlash, raqamli reklama va agrofrenchayzing mexanizmlarining qishloq xo'jaligi mahsulotlarini bozorga ilgari surishdagi roli yoritilgan. Tadqiqot natijalari qishloq xo'jaligi mahsulotlari raqobatbardoshligini oshirish, eksport salohiyatini kengaytirish va reklama faoliyatini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: bozor raqobati, qishloq xo'jaligi mahsulotlari, reklama, marketing, brend, raqamli reklama, agrofrenchayzing.

Abstract. This article examines the theoretical and practical aspects of effective organization of agricultural product advertising under conditions of increasing market competition. The study analyzes the specific characteristics of agricultural products, the impact of seasonality, demand in domestic and foreign markets, and the efficiency of advertising tools. Special attention is paid to the role of modern marketing communications, branding, digital advertising, and agro-franchising mechanisms in promoting agricultural products. The research findings contribute to the development of scientific and practical recommendations aimed at enhancing the competitiveness of agricultural products and expanding export potential.

Key words: market competition, agricultural products, advertising, marketing, brand, digital advertising, agro-franchising.

Аннотация. В статье исследуются теоретические и практические аспекты эффективной организации рекламы сельскохозяйственной продукции в условиях усиливающейся рыночной конкуренции. В ходе исследования проанализированы специфические особенности сельскохозяйственной продукции, фактор сезонности, спрос на внутреннем и внешнем рынках, а также эффективность использования рекламных инструментов. Особое внимание уделено роли современных маркетинговых коммуникаций, брендинга, цифровой рекламы и механизмов агрофранчайзинга в продвижении сельскохозяйственной продукции на рынке. Результаты исследования могут быть использованы при разработке научно-практических рекомендаций, направленных на повышение конкурентоспособности сельскохозяйственной продукции и расширение экспортного потенциала.

Ключевые слова: рыночная конкуренция, сельскохозяйственная продукция, реклама, маркетинг, бренд, цифровая реклама, агрофранчайзинг.



KIRISH

Ma'lumki, jamiyatning ijtimoiy-demografik va iqtisodiyot tarmoqlarining jadal rivojlanishi jarayonida tovar va xizmat turlari, shuningdek, ularni ishlab chiqaruvchilar sonining ortib borishi o'ziga xos qonuniyat hisoblanadi. Bu holat, o'z navbatida, nafaqat mahsulot yetishtiruvchilar, balki iste'molchilar o'rtasida ham raqobat muhitining shakllanishi va kuchayishiga olib keladi. Bunday sharoitda ishlab chiqaruvchilar bozorga kirish va unda samarali faoliyat yuritish uchun kurash olib borsalar, iste'molchilar sifatli, biroq arzon mahsulot xarid qilish maqsadida bilvosita tarzda o'zaro raqobatchilarga aylanadi. Natijada bozorlar hamda savdo-sotiq faoliyati bilan shug'ullanuvchi barcha subyektlar faoliyatida axborot berish vositalari va usullariga bo'lgan kuchli talab shakllanadi hamda bu holat obyektiv zaruriyat darajasiga ko'tariladi. Mazkur vazifalar marketing fanining asosiy unsurlaridan biri hisoblangan reklama tizimi orqali amalga oshiriladi va u bozorlarda sodir bo'layotgan barcha jarayonlar hamda harakatlar to'g'risidagi axborotni tarqatuvchi muhim vosita sifatida jamiyat hayotida muhim rol o'ynaydi.

Shu boisdan, bozor iqtisodiyoti sharoitida muhim ahamiyat kasb etuvchi reklama faoliyatini tashkil etish va rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 7-iyundagi "Reklama to'g'risida"gi O'RQ-776-sonli¹ Qonuni qabul qilingan. Mazkur Qonunning 4-moddasida reklama "bevosita yoki bilvosita foyda (daromad) olish maqsadida yuridik yoki jismoniy shaxslar, mahsulot, shu jumladan tovar belgisi, xizmat ko'rsatish belgisi va texnologiyalar to'g'risida har qanday shaklda va har qanday vositalar yordamida qonun hujjatlariga muvofiq tarqatiladigan maxsus axborot"² sifatida ta'riflangan.

Qishloq xo'jaligi tarmog'ida yetishtirilgan bir xil tur va navdagi mahsulotlarning alohida xususiyatlari bilan farqlanishi hamda ularga nisbatan iste'molchilar munosabatining o'zgarib borayotgani ushbu farqli jihatlarga e'tiborni jalb etish usullarini rivojlantirishni taqozo etmoqda. Ushbu usullar orasida eng keng tarqalgan vositalardan biri reklama bo'lib, hozirgi davrda uni maqsadli va manzilli amalga oshirishda texnik taraqqiyot yutuqlari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Biroq olib borilgan tadqiqotlar qishloq xo'jaligi sohasida reklama faoliyati bu borada nisbatan sust rivojlanganligini ko'rsatadi. Buning asosiy sabablaridan biri mazkur tarmoqning dastlab bozor iqtisodiyotiga o'tish davri talablariga mos shakllanganligi natijasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotish tizimida sog'lom raqobat muhitining yuzaga kelishi sekinlashganidir. Chunki mahsulotlarning asosan ichki iste'molga yo'naltirilgani, davlatning doimiy nazorati va qo'llab-quvvatlashi sharoitida ularni reklama qilishga zarurat bo'lmagan. Natijada qishloq xo'jaligi mahsulotlari reklamasiga oid masalalar bo'yicha marketologlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borish va ushbu yo'nalishni rivojlantirish masalalari ma'lum darajada e'tibordan chetda qolgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bozor raqobati kuchaygan sharoitda reklama va marketing kommunikatsiyalari mahsulotni bozorga olib kirish, differensiallash va iste'molchi ongida qiymat yaratishning asosiy vositalaridan biri sifatida talqin etiladi. Xususan, F. Kotler va hammualliflar marketingni bozor ehtiyojlarini aniqlash va qondirishga qaratilgan boshqaruv tizimi sifatida ko'rsatib, brend, pozitsiyalash va marketing-miks elementlari orqali raqobat ustunligini shakllantirish mumkinligini asoslaydi; bu yondashuv qishloq xo'jaligi mahsulotlarida ham "kelib chiqish hududi", "sifat", "organiklik" kabi atributlar orqali qiymat taklifini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining mavsumiyliigi, tez buziluvchanligi, logistika zanjiri va bozor segmentlarining tez o'zgarishi reklama mazmuni va kanallarini puxta tanlashni talab etadi. CTA tomonidan tayyorlangan qo'llanmada bozorga kirish (market access) jarayonida standartlash, sifat talablari, bozor axboroti, savdo kanallari va marketing instrumentlarini uyg'un qo'llash zarurligi yoritiladi; bu esa agrar mahsulotlarni ichki hamda tashqi bozorlarda maqsadli targ'ib qilish, xaridorlar bilan barqaror aloqalarni yo'lga qo'yish va qiymat zanjiri ishtirokchilari o'rtasida axborot almashinuvini kuchaytirish bilan bevosita bog'liq. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Reklama to'g'risida"gi Qonuni reklama faoliyatining huquqiy-me'yoriy asoslarini belgilab, reklama tarqatish jarayonida shaffoflik va qonuniylik tamoyillariga rioya etilishini taqozo etadi.

Agrar bozorda reklama samaradorligini oshirishda tashkiliy yechimlar, jumladan franchayzing mexanizmlaridan foydalanish ham muhim yo'nalish sifatida qaraladi. Y. Yusupov va hammualliflar franchayzingni tadbirkorlikda brend, biznes-model va boshqaruv tajribasini ko'paytirishning amaliy vositasi sifatida izohlaydi; bu yondashuv qishloq xo'jaligida "agrofranchayzing" orqali savdo belgisi, xizmat ko'rsatish standarti, marketing va konsalting elementlarini birlashtirgan holda mahsulotni bozorga tizimli chiqarish imkonini beradi. Mahalliy o'quv adabiyotlarida ham qishloq xo'jaligi mahsulotlari marketingi bo'yicha bozorni segmentlash, talabni o'rganish, narx va taqsimot siyosati, kommunikatsiyalarni rejalashtirish masalalari yoritilib, reklama strategiyasi ushbu elementlar bilan uyg'un holda qo'llangandagina barqaror natija berishi ta'kidlanadi.

1 O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 7-iyundagi "Reklama to'g'risida"gi O'RQ-776-sonli Qonuni: <https://lex.uz/uz/docs/-6052631>

2 Ўзбекистон Республикасининг "Реклама тўғрисида"ги қонун, lex.uz/acts/25458



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu ilmiy maqolada tadqiqot metodologiyasi sifatida sifat va miqdoriy yondashuvlar uyg'unligi qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida ma'lumotlar ikkilamchi va birlamchi manbalar asosida olindi. Ikkilamchi ma'lumotlar rasmiy statistika materiallari, normativ-huquqiy hujjatlar, ilmiy maqolalar, monografiyalar hamda soha bo'yicha nashr etilgan hisobotlar orqali shakllantirildi. Birlamchi ma'lumotlar esa sohaga oid ochiq axborot manbalari, amaliy kuzatuvlar va taqqoslama tahlillar asosida yig'ildi. Olingan ma'lumotlar tizimli yondashuv asosida guruhlashtirilib, mantiqiy tahlil, qiyosiy tahlil hamda umumlashtirish usullari yordamida o'rganildi. Shuningdek, reklama faoliyatining bozor raqobatiga ta'siri sabab-oqibat bog'liqligi asosida tahlil qilinib, ilmiy xulosalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunga kelib, qishloq xo'jaligida olib borilayotgan jadal tashkiliy-tarkibiy va iqtisodiy islohotlar, fikrimizcha, quyidagi sabablarga ko'ra aynan reklama xizmatini rivojlantirish zaruriyatini yuzaga keltirmoqda:

- paxta maydonlarini qisqartirish hisobiga kartoshka, meva-sabzavot va poliz ekinlari maydonlarining kengaytirilishi natijasida mazkur mahsulotlarning mamlakat ichki iste'moliga nisbatan ortiqcha yetishtirilishi hamda raqobat muhitining rivojlanishi;

- meva, sabzavot va poliz mahsulotlari eksportiga alohida e'tibor qaratilishi, shuningdek, aksariyat hollarda ularning mavsumiylik xususiyatlari sababli ichki va tashqi bozorlarning yangi segmentlarini qisqa muddatda egallash zaruriyati;

- kelgusida mamlakatimizning Jahon Savdo Tashkiloti (JST)ga a'zo bo'lishi sharoitida ichki va tashqi bozorlardagi raqobatga bardosh bera oladigan eksportbop mahsulotlarning milliy brendlarini shakllantirish zarurati;

- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotishning zamonaviy usullari rivojlanib borayotgan hozirgi sharoitda reklama xizmatlari uchun zarur resurslarga bo'lgan talabning ortib borishi;

- fanga "yashil iqtisodiyot", "organik mahsulot", "GMOdan holi" kabi tushunchalarni bir-biridan reklama orqali farqlash imkoniyatini yaratish zarurati;

- so'nggi 10-yillikda onlayn xizmatlar hajmining oshishi va ularning insonlar kundalik hayot tarziga aylanishi natijasida qishloq xo'jaligida ham internet orqali reklama va blogerlik xizmatlarini kengaytirish, zamonaviy ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish imkoniyatlarini oshirish zarurati va hokazo.

Qishloq xo'jaligi bilan bog'liq reklama tizimining iqtisodiyotning boshqa tarmoqlaridan farqi nafaqat sotish kanallariga chiqariladigan mahsulotlar miqdori, balki ularning harakatlanish geografiyasi, turlari, sifati, narxi, talab va taklif nisbatlarining o'zgarishi kabi ko'p qirrali umumiy ma'lumotlarga asoslanganligi bilan ham izohlanadi.

Bugungi kunda qishloq xo'jaligi mahsulotlari reklamasi umumiy reklama turlari kabi aholiga axborot yetkazishda quyidagi kanallar, tadbirlar va vositalarga tayanadi:

- ko'rgazmalar va yarmarkalar orqali;
- anjumanlar, seminarlar va konferensiyalar orqali;
- reklama roliklari va bannerlari orqali;
- agroturizmni rivojlantirish orqali va shu kabilar.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, hozirgi paytda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini reklama qilish asosan turli ko'rgazma va yarmarkalar orqali amalga oshirilmoqda, boshqa vositalardan esa aksariyat hollarda yetarli darajada foydalanilmayapti. Faqatgina 2018-yil bahor mavsumida "O'zagroeksport" tomonidan gilosning xarid narxlariga to'g'risidagi reklama roliklari taqdim etilgan, xolos. Umuman olganda, bizning fikrimizcha, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini quyidagi yo'nalish va shakllarda reklama qilish maqsadga muvofiq:

- aniq turdagi mahsulotni yetishtirish texnologiyasi, tarkibi, tashqi ko'rinishi va kelib chiqqan hududini targ'ib qilish. Masalan, asal reklamasi jarayonida u yig'ib olingan hudud, o'sha hudud florasini hamda mahsulotni qadoqlash texnologiyasini namoyish etish orqali iste'molchilar e'tiborini jalb etish mumkin;

- mahsulot yetishtirilgan hududning tabiiy resurslari, iqlim sharoiti va ularning mahsulot sifatiga ta'siri bilan bog'liq ma'lumotlarni reklama qilish;

- tarkib jihatidan iste'molchilar talablariga javob beradigan organik mahsulotlar yetishtirish miqyosining kengayib borishi mazkur turdagi mahsulotlarni yetishtirishga ixtisoslashgan xo'jaliklar faoliyati to'g'risidagi axborotlarni alohida reklama qilishni talab etadi.

Hozirgi davrda iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi qishloq xo'jaligi mahsulotlariga tegishli brend va tovar belgisi kabi tushunchalarning ommalashuvi hamda keng qo'llanilishiga zamin yaratmoqda. Marketingning asosiy tushunchalaridan biri hisoblangan brend mahsulotlarning o'zaro farqlanishiga xizmat qiluvchi,



iste'molchilarda to'g'ri tanlovni shakllantiruvchi tovar belgisi hisoblanadi. Marketing sohasi bo'yicha professor F. Kotler "marketingdagi eng muhim tushuncha bu brend tushunchasidir. Agar siz brend bo'lmasangiz, siz mavjud emassiz. Unda siz kimsiz? Siz oddiy tovarsiz"³, degan fikrni ilgari surgan. Binobarin, kuchli raqobat sharoitida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini reklama qilishda ham brend va tovar belgisidan foydalanish masalasi tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Zero, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini reklama qilishning zamonaviy usuli bu tovar belgisini yaratish, uni targ'ib qilish va brend darajasiga olib chiqishdan iboratdir. Qishloq xo'jaligida brend iqtisodiyotning boshqa tarmoqlaridan farqli ravishda yillar davomida shakllanadi va moliyaviy jihatdan bir necha yil davomida kichik hajmdagi qaytim bilan qoplanadi. Biroq mahsulotlarning mavsumiyligi sababli reklama xarajatlari kichik xo'jaliklar uchun o'zini oqlamasligi mumkin. Shu bois, bunday sharoitda tovar belgisi yoki brendni ijaraga olish tizimidan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

So'nggi yillarda jahon amaliyotida reklama tizimi bilan bog'liq munosabatlarda istiqbolli yo'nalish sifatida baholanayotgan franchayzing tuzilmasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Franchayzing (yoki franshiza) bu savdo belgisini yoki firma texnologiyalarini (tashkiliy usullarni) boshqa tadbirkorga sotish yoki vaqtinchalik foydalanishga berish shaklidir. Franchayzing doirasida munosabatlar subyekti sifatida ikki tomon ishtirok etadi. Savdo belgisi yoki texnologiya egasi franchayzer deb, franchayzerga tegishli huquqlardan foydalanish imkoniyatini sotib oluvchi shaxs franchayzi deb ataladi. Ushbu jarayonda franchayzer tomonidan franchayziga taqdim etiladigan huquqlar majmuasi ko'p hollarda franshiza deb yuritiladi. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq, faqat tijorat tashkilotlari va tadbirkorlik subyektlari sifatida ro'yxatdan o'tgan shaxslar franchayzing shartnomasining ishtirokchilari bo'lishi hamda shartnoma talab va majburiyatlarini to'liq bajarishi lozim⁴.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, franchayzing asosan sanoat va xizmat ko'rsatish tarmoqlarida keng rivojlangan bo'lsa-da, so'nggi yillarda qishloq xo'jaligida ham mazkur faoliyat "agrofranchayzing" yoki "qishloq xo'jaligi franchayzingi" nomlari ostida keng joriy etilmoqda. Agrofranchayzing deganda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, saqlash, tashish, iste'molchiga yetkazib berish va sotish kabi faoliyat yo'nalishlarida muayyan muvaffaqiyatlarga erishgan subyektning nomi, ish uslubi, nou-xau, yillar davomida to'plangan tajribasi, bilim va ko'nikmalari, ishlab chiqarish hamda boshqaruv texnologiyalaridan o'z faoliyatida pullik asosda foydalanish tushuniladi. Bunda franchayzer savdo belgisi va brendga ega bo'lgan korxona bo'lsa, franchayzi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi yoki ularni sotish bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyekti hisoblanadi.

O'z navbatida, yuqorida qayd etilganidek, agrar tarmoqning o'ziga xos jihatlari mavjud bo'lib, ular har qanday yangi faoliyat turini, jumladan franchayzingni joriy etishda alohida yondashuvni talab qiladi. Iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga nisbatan qishloq xo'jaligida ushbu jarayon quyidagi jihatlari bilan murakkablik kasb etadi:

- qishloq xo'jaligida investitsion oqimlarning pastligi, asosan mikroinvestitsiyalarga tayanilishi hamda asosiy moliyaviy xarajatlarning davlat ko'magida amalga oshirilishi;
- intellektual mulk huquqlarini shartnoma asosida berish amaliyotining o'ziga xosligi va qo'shimcha resurs hamda vaqt talab etishi;
- mahsulotlarning pishib yetilishi mavsumiy xarakterga ega bo'lib, qisqa muddatda katta hajmdagi ishlarni bajarish zaruriyati;
- o'simlikchilik mahsulotlariga nisbatan chorvachilik mahsulotlarida agrofranchayzingni qo'llash imkoniyatlarining yuqoriligi bilan birga, ularni bir-biridan ajratgan holda rivojlantirib bo'lmasligi;
- tovar belgisi va brend mavsum oldidan reklama qilinganda tabiiy omillar ta'sirida iste'molchi fikrining tez o'zgarishi va shu kabilar.


Franchayzing faoliyat yo'nalishiga ko'ra ishlab chiqarish, sotish va xizmat ko'rsatish sohalarida farqlanadi. Agrofranchayzing esa sotish sohasida nisbatan samarali bo'lib, mamlakatimizda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotish tizimida to'planib borayotgan muammolar yechimiga qaratilgan hamkorlik shakli sifatida tomonlar manfaatlariga mos kelishi va istiqbolda rivoj topishi mumkin.

Agrofranchayzingdan foydalanish amaliyoti ko'plab mamlakatlarda, jumladan Yevropa Ittifoqi davlatlari, AQSh, Kanada, Rossiya, Ukraina, Hindiston va Xitoyda keng rivojlanib bormoqda. Markaziy Osiyoda esa Qozog'istonda mazkur yo'nalish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar va amaliy choralar nisbatan ilgariroq boshlanganligi kuzatiladi.

Mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlarimiz natijalariga ko'ra, respublikamizda agrofranchayzing tuzilmalarini reklama, marketing va konsalting xizmatlari bilan o'zaro bog'liq holda tashkil etish maqsadga muvofiq bo'lib, ushbu jarayon 1-rasmda keltirilgan usullar, munosabatlar va mexanizmlar doirasida amalga oshirilishi mumkin.

3 <http://brandstory.com.ua/filip-kotler-esli-vy-ne-brend-vy-ne-sushhestvuete/>

4 Ю.Юсупов ва бошқалар. Ўзбекистон тadbirkorlari учун франчайзинг бўйича қўлланма. Услубий қўлланма. Тошкент, 2008 й.



1-rasm. Agrofranchayzing tuzilmasi va tarkibiy subyektlar funksional vazifalarining o'zaro bog'liqlik tizimi⁵

Agrofranchayzing tuzilmalari reklama orqali brend va savdo belgisini targ'ib qilishi, muayyan nom ostida taklif etilayotgan mahsulotlarning alohida jihatlarini ochib berishi, marketing faoliyati orqali esa ichki va tashqi bozorlarda tadqiqotlar o'tkazishi hamda ma'lumotlar bazasini shakllantirishi mumkin. Bundan tashqari, mahsulot yetishtirish, saqlash va qadoqlash yo'nalishlarida to'plangan tajribalar asosida tushuntirish ishlarini olib borish, standartlar ishlab chiqish, talablarni moslashtirish hamda konsalting xizmatlari orqali o'quv kurslarini tashkil etish imkoniyatiga ega.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o'rinda aytish mumkinki, reklama tizimi bilan bog'liq yuqorida ta'kidlangan muammolarning ilmiy-amaliy hamda tashkiliy-iqtisodiy yechimlarini aniqlash va ularni amaliyotga joriy etish respublikamizda yetishtirilayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini jahon bozorlariga olib chiqish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shuningdek, mazkur jarayon eksportsalohiyatini oshirishga, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining raqobatbardoshligini mustahkamlashga hamda mamlakatga xorijiy valuta tushumlari oqimini ko'paytirishga xizmat qiladigan muhim omil bo'lib hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 7-iyundagi "Reklama to'g'risida"gi Qonuni. <https://lex.uz/uz/docs/-6052631>
2. Y. Yusupov va boshqalar. O'zbekiston tadbirkorlari uchun franchayzing bo'yicha qo'llanma. Uslubiy qo'llanma. Toshkent, 2008-yil.
3. <http://brandstory.com.ua/filip-kotler-esli-vy-ne-brend-vy-ne-sushhestvuet>
4. Market Access and Agricultural Product Marketing. CTA, 2009-yil. 168 bet.
5. Kotler, Ph. Principles of Marketing. Second European Edition. Prentice Hall Europe, 1999-yil. 1036 bet.

5 Муаллиф tadqiqotlari asosida tuzilgan



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
